ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 28.12.2025 · Accepted: 16.03.2026 · Published: 31.03.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/4b82hv65

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 1(2), 2026
www.jnculture.uz

Zamonaviy o‘zbek teatrida yosh ilg‘or ayol obrazi va gender tenglik masalalari

(The Image of the Progressive Young Woman in Contemporary Uzbek Theatre and Issues of Gender Equality)

Kamolakhon Rahmonova

Department of Theatre and Choreography,
Institute of Art Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
100029, Mustaqillik Square, 2.
Uzbekistan/Tashkent
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-3088-155X
Email: rahmonovakomola91@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada gender tenglik fenomenining shakllanish jarayoni hamda uning global miqyosda yoyilish xususiyatlari, ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ko‘rib chiqilib, “gender tenglik” tushunchasining O‘zbekiston ijtimoiy-madaniy makoniga kirib kelish davri va uning ma’naviy-ijtimoiy funksiyalari ochib beriladi.

Shuningdek, bugungi kunda xalqaro miqyosda dolzarblik kasb etayotgan gender tenglik muammosining o‘zbek teatr san’atida aks etish jarayonlari tahlil qilinadi. Xususan, mazkur masalani sahnada ifodalashda qo‘llanilayotgan badiiy-g‘oyaviy yondashuvlar hamda tasviriy-ifodaviy vositalarning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy asosda yoritiladi.

Maqolada yosh ayol qahramon obrazi evolyutsiyasini ochib berish maqsadida tarixiy ekskurs amalga oshiriladi. Tarixiy taraqqiyot bosqichlarida ushbu obrazning shakllanishi davrlar prizmasida tahlil etilib, undagi dinamik o‘zgarishlar, g‘oyaviy yo‘nalishlar, siyosiy-ijtimoiy ehtiyojlar hamda badiiy shakllarning transformatsiyasi aniqlashtiriladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda zamonaviy ayol qahramon obrazini yaratishga bo‘lgan ehtiyoj, bu boradagi ijodiy izlanishlar hamda ularning o‘zbek teatr amaliyoti rivojiga qo‘shgan hissasi alohida e’tibor markazida bo‘ladi. Gender tenglik masalasining zamonaviy sahna san’atidagi mazmun-mohiyati, uning estetik va ijtimoiy ahamiyati ilmiy nuqtayi nazardan baholanadi.

Tahlil jarayonida “Quyoshni sen uyg‘otasan”, “Oydin”, “Bog‘”, “Jamila” kabi spektakllar misolida yangi davr o‘zbek teatrida yosh ayol qahramon obrazini yaratish shakllari, badiiy ifoda usullari hamda janr xususiyatlarida yuzaga kelgan yangilanishlar kompleks tarzda o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek teatri, gender tenglik, yosh ayol qahramon, badiiy talqin, obraz evolyutsiyasi, aktyorlik mahorati.

Abstract

This article analyzes the formation of the gender equality phenomenon and the features of its global dissemination. It examines the stages of the introduction of the concept of “gender equality” into the socio-cultural space of Uzbekistan and reveals its spiritual and social functions. Particular attention is paid to the representation of gender equality issues in Uzbek theatrical art, focusing on artistic, ideological, and expressive means of stage interpretation.

The study explores the evolution of the young female character through a historical excursus, identifying socio-political factors, ideological trends, and transformations of artistic forms across different periods. It also evaluates the need for creating a modern female character in the period of independence and the contribution of creative explorations to the development of Uzbek theater practice.

Based on the analysis of the performances “Quyoshni sen uyg‘otasan”, “Oydin”, “Bog‘”, “O‘zbekcha raqs”, and “Jamila”, the article examines the principles of representing young female characters, artistic expression methods, and genre transformations in contemporary Uzbek theater.

Keywords: uzbek theater, gender equality, young female character, artistic interpretation, character evolution, acting mastery.

Аннотация

В данной статье анализируются процессы формирования феномена гендерного равенства и особенности его распространения в глобальном масштабе. Раскрываются этапы проникновения понятия «гендерное равенство» в социально-культурное пространство Узбекистана, а также его духовно-социальные функции. Особое внимание уделяется отражению проблем гендерного равенства в узбекском театральном искусстве, анализируются художественно-идейные и выразительные средства их сценического воплощения.

В статье исследуется эволюция образа молодой женщины на основе исторического экскурса, выявляются социально-политические факторы, идейные направления и трансформация художественных форм в различные исторические периоды. Рассматривается потребность в создании современного женского образа в период независимости и вклад творческих поисков в развитие узбекского театра.

На примере спектаклей «Ты пробуждаешь солнце» («Quyoshni sen uyg‘otasan»), «Ойдин», «Сад» («Bog‘»), «Джамиля» анализируются принципы создания образа молодой героини, художественные средства и жанровые особенности современного узбекского театра.

Ключевые слова: узбекский театр, гендерное равенство, образ молодой женщины, художественная интерпретация, эволюция образа, актерское мастерство.

Dunyoda gender tenglik, feminizm va ayollar ilg‘orligi bo‘yicha turli fikrlar va qarashlar mavjud. Bular ustida bahs-munozaralar hali-hanuz davom etmoqda. Ma’lumki, dunyoqarashlar va g‘oyalarni ilgari surishda G‘arb va Sharqning o‘ziga xos farqli va ziddiyatli tomonlari bor. Demokratiya tushunchasi turli joylarda turlicha talqin etilgani singari, dunyo hamjamiyati qanday fikrlashidan qat’iy nazar, gender tenglikni ham barcha xalq o‘z mentalitetiga xos, axloqiy qarashlarini nazarda tutgan holda qabul qiladi. “Markaziy Osiyoda yaqin o‘tmishda jamiyatning barcha ommaviy faoliyati erkaklar vakolatiga tegishli edi. Ayollar jamiyat hayotida o‘zlarini ochiq ifoda etishda haqli emas edilar” [1]. Osiyo mamlakatlarida bu tushunchalar yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati jihatidan, ularni barcha jabhadan xabardor va faol bo‘lishlarini ta’minlash maqsadida qo‘llanilmoqda. “Gender tenglik” tushunchasi butun dunyoning ijtimoiy-gumanitar fan tarmoqlarida faol o‘rganilayotgan masalalardan sanaladi. Bu masala san’at sohalarida ham namoyon bo‘lmoqdaki, jumladan, teatr san’atidagi o‘rni, ahamiyati, madaniy rivojlanishga ta’siri nuqtayi nazaridan tadqiq va tahlil etish muhim ahamiyatga ega. “Bugungi kunda bunday tadqiqotlarning vazifasi jamiyat va madaniyatdagi gender munosabatlarning eng yaxshi modelini topishdir” [2].

Bugungi kunda xotin-qizlar bilan bog‘liq ishsizlik, jamiyatda o‘z o‘rnini topish, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida faol bo‘lish kabi hayotiy ehtiyoj sanalgan muammolar dolzarb ekan, “gender tenglik” va ilg‘or ayollarni qo‘llab-quvvatlash masalasi aktual masala bo‘lib qolaveradi. Bu masalaning maxsus o‘rganilishining sabablaridan yana biri “insoniyat gender inqilobi arafasida turibdi” [3], deb hisoblashmoqda ushbu muammo ustida izlanayotgan ayrim olimlar. Shuningdek, jahon san’atshunosligiga “gender tenglik”, “feminizm”, “underground”, “gender madaniyat” kabi terminlar kirib keldi va ushbu masalalar bo‘yicha ilmiy izlanishlar ko‘zga tashlanmoqda. Bu madaniyatga yosh xotin-qizlarning qanday kirib kelayotganini o‘rganish, mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan aniq vazifalarni belgilab olishga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida,

yosh oilalar bilan yuz berayotgan muammolarni hal etish, faol ayollarni tarbiyalashda ahamiyatga ega. O‘rganilgan maqolalardan shu ko‘rinib turibdiki, ilmiy maqolalar va dissertatsiyalarning san’atshunoslik yo‘nalishlarida ham gender va ilg‘or ayol masalasi filologiya kontekstida yoki umumiy formada ko‘rib chiqilgan. Masalan, Katarina Sales de Olivera “Imkoniyatlarni oshirish laboratoriyalari: ijtimoiy o‘zgarishni katalizatsiyaslash uchun gender tenglik, ish qobiliyati va teatr masalasi” nomli maqolasida ishsiz, himoyaga muhtoj ayollarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Portugaliyada tashkil etilgan bir loyihani ilgari suradi: “Gender tengligi, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, teatr amaliyotiga asoslangan strategiya orqali ayollarning ish bilan ta’minlanishidagi to‘siqlarni olib tashlash uchun ish va bandlik dunyosiga qaratilgan birlashtiruvchi mavzu” sifatida ishlaydi. Laboratoriyaning o‘ziga xos vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Ishtirokchilarda estetik sezgirlik va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish;

2. Ularning kasbiy va jamoat hayotiga mos keladigan ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularning mutaxassislar, fuqarolar va ayollar sifatida qadr-qimmatini anglash darajasini oshirish;

3. Ushbu jarayonni jamoatchilik bilan baham ko‘rish va shu tariqa gender tengligini ta’minlash” [4].

Bu kabi loyihalar yosh xotin-qizlarning jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlariga yordam beradi. Biroq, loyihada teatr gender muammolarni yechishda shunchaki vosita sifatida ishtirok etmoqda. Ya’ni, sahna ko‘rinishlari ijodkorlar tomonidan professional ijroda olib chiqilmagan. Demak, tadqiqot obyekti bevosita teatr emas. Mavzuni maxsus teatrshunoslik nuqtayi nazaridan, yosh ilg‘or ayol mavzusini gender masala bilan parallel ravishda ko‘rib chiqilgan mustaqil va kompleks tadqiqotlarni uchratish qiyin. Ayniqsa, bugungi kunda xotin-qizlarga bo‘lgan e’tibor, qarashlar o‘zgarib borayotgani bois, bu mavzuga munosabat va uning dinamik xususiyatlarini o‘rganish dolzarbdir.

Dunyoning ko‘pgina davlatlarida “gender rol funksiyalari o‘zgarishinining faol jarayoni” [3] kechayotgan bir vaqtda O‘zbekistonda ham “gender tenglik” – tushunchasiga maxsus e’tibor berilib, ushbu mavzuda keng ilmiy tadqiqotlar olib borish masalasiga jiddiy ahamiyat qaratilmoqda. Buning amaliy isboti sifatida 2019-yil 2-sentyabr O‘RQ-562-sonli “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlar qabul qilindi, Senatda Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori asosida tuzilgan Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiya tuzilib, Gender tenglik strategiyasi loyihasi ishlab chiqildi. Gender tenglik – ayollar va erkaklarning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida teng huquq va erkinliklar, shuningdek, mas’uliyatga egaliklaridir. Ayollarning jamiyat ishlarida faolligi barkamol avlod tarbiyasi va ijtimoiy taraqqiyot uchun birdek muhim. Shu yuzasidan zamonaviy jarayonlarda gender tenglik tushunchasi yangicha ko‘rinishda dolzarblik kasb etib, barcha sohalarda qo‘llanishi uchun targ‘ib qilinmoqda. Xotin-qizlarning o‘z huquq va imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanishlari uchun davlat siyosati darajasida katta e’tibor berilmoqda.

“Gender tenglik” tushunchasi O‘zbekistonda alohida termin sifatida yaqin yillardan muomalaga kiritilgan bo‘lsa-da, ammo bu kabi qarashlar Yevropadan Osiyo mamlakatlari, xususan, O‘zbekistonga XX asr boshlaridan kirib keldi va davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu davrdan boshlab teatr sotsialistik madaniyatni targ‘ib eta boshladi. “Sotsialistik inqilob “shaklan milliy, mazmunan “sotsialistik” sovet madaniyatini vujudga keltirishi lozim edi” [5, b.52]. Barcha teatr ishlari ana shu yangi g‘oya asosida olib borildi. Sovet hukumati uchun teatr o‘z

g‘oyalarini tez va oson singdirishda bir qurol edi. Jadidlar uchun esa yangi teatr xalqni ma’rifatli qilish, “ko‘zini ochish” uchun asosiy vositaga aylandi.

1920-yillarda xotin-qizlarni “ozodlik”ka chiqarish bo‘yicha harakatlar keng tus oldi. “Avval har bir xonadonda tushuntirish ishlari olib borilib, xotin-qizlarni o‘qishga, kasb-hunarga jalb qilish bo‘yicha suhbatlar o‘tkazildi. 1926-yilda O‘rta Osiyo partiya qo‘mitalarining xotin-qizlar orasida olib borilayotgan ishlarni jadallashtirish va uni majburiy ravishda o‘tkazishga qaror qilindi. Bu majburiy tadbir “Hujum” deb ataldi” [5, b.60]. Bu harakat targ‘ibotchilari xotin-qizlarni paranjidan xalos etmay turib, ularni teng huquqli, ziyoli qilib bo‘lmasligini yaxshi bilardilar. Biroq oqibati o‘ylamay qilingan bu tezkor tadbir o‘zbek ayollarining o‘z yaqinlari bilan oilaviy munosabatlarining buzilishi, o‘z qarindoshlari tomonidan halok qilinishi kabi fojiali oqibatlar bilan tugadi.

O‘tgan asrdan shu kungacha teatrda yosh ayol qahramon obrazi va uning muammolarini ko‘tarib chiqqan spektakllarni shartli ravishda to‘rt bosqichda ko‘rib chiqish o‘rinli bo‘ladi:

1. 1920 -1930-yillar;
2. 1940-1960-yilgacha;
3. 1960-1980-yillar;
4. Mustaqillikdan keyingi davr.

1. 1920-1930-yillar teatrning bevosita ta’sir kuchi inobatga olingan holda, dramaturglar tomonidan yosh ayol va qizlarni “ochilish”ga chorlovchi, erkinlikka da’vat etuvchi, paranji tashlashni yoqlovchi asarlar yaratila boshlandi. Asarlarda paranji bilan kechgan diniy hayot zulmat kabi qora bo‘yoqlarda, ezilgan va xo‘rlangan yosh ayollar taqdiri sifatida, paranji tashlangandan keyingi hayot esa partiya bilan bog‘liq holda go‘zal va baxtli hayot sifatida ko‘rsatildi. Hamza bu g‘oyani birinchilardan bo‘lib ko‘tardi. “Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari”da 17 yoshli Maryam xonim , “Boy ila xizmatchi”da 16 yoshli Jamila, “Paranji sirlaridan bir lavha”da 17 yashar To‘laxon, “Tuhmatchilar jazosi”da 20 yoshli Fotima aynan

mustaqillik, erkinlik, ayollarga quldek munosabatga qarshi, ozodlik yo‘lida hech qanday to‘siqlardan qaytmaydigan irodali ilk yosh ayol qahramonlar edi.

Hamza an’anasini keyinchalik G‘ulom Zafariy (“Xalima”), Komil Yashin (“Gulsara”, “Nurxon”) davom ettirdi. Ushbu asarlarda asosan yosh xotin-qizlarning erk masalasida yaqinlari tazyiqiga uchrashi, chorasizlik iskanjasida qolib, jismonan yengilishi tasvirlanadi. Ya’ni, ular o‘z jonlariga qasd qiladilar. Bu ularni qurshab olgan adolatsiz jamiyatga keskin protest edi. Hamza bilan boshlangan birinchi bosqichni Komil Yashin kuchli ta’sirga ega bir nechta sahna asarlari bilan tugalladi.

2. 1940-1960-yillarda xotin-qizlarning erkaklar bilan mehnat munosabatlarida teng huquqli bo‘lishlari va jamiyatda o‘z o‘rnini topishlari Uyg‘unning “Hayot qo‘shig‘i”, “Navbahor”, “Parvona”, Abdulla Qahhorning “Shohi so‘zana” kabi asarlaridagi ishchilar sinfining ilg‘or ayoli, kolxoz yosh xotin-qizlarining hayoti, ijtimoiy-axloqiy o‘y-fikrlari, bunyodkorlik g‘oyalarida aks etdi.

3. 1960-1980-yillar o‘zbek teatri yosh ayol obrazlarida shaxsiy munosabatlarning, ichki kechinma va yon-atrofdagilar bilan bog‘liq kichik konfliktlar orqali jamiyatga bo‘lgan katta ta’sirlari aks etgan sahnaviy asarlar yaratildi. Xususan, Maksim Karimov (“O‘n sakkiz yoshligim”, “Diydor”, “Notanish tanishginam”, “Intilganga tole yor”) asarlarida yosh ayollar obrazi sof yoshlik navolari va yangicha qarashlar, ichki boy hissiy kechinmalarga alohida urg‘u berilgani bilan yosh ayol obrazini tasvirlash yangi bosqichga ko‘tarilganini e’tirof etish mumkin. Ya’ni, ana shu yillardan boshlab yosh ayol qahramonlarga individual yondashuvlar ko‘zga tashlandi.

4. Mustaqillikka erishilgandan so‘ng, o‘z-o‘zidan yangi zamonaviy qahramon obrazi yaratishga ehtiyoj tug‘ildi. Hukumat topshirig‘i bilan bu jarayon tez sur’atlarda amalga oshib, o‘zbek sahnasida birin-ketin zamonaviy yosh qahramonlar obrazi yaratila boshladi. Zamonaviy dramaturgik asarlarda ayollarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, adolatsizlikka qarshi kurashi, ilg‘or kadr bo‘lib yetishishi uchun intilishini ifodalovchi, asosan zamon qahramoni xususiyatlariga ega bo‘lgan

spektakllar sahnaga olib chiqildi. Ularda yosh xotin-qizlarning zamonaviy hayotda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga munosabati, jamiyatda va oiladagi o‘rni uchun kurashi ko‘rsatiladi.

Mustaqillik davrida gender masalasi o‘zgacha ko‘rinish va struktura kasb etdi. “Erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlar bugungi kundagi ko‘p asarlarning asosiy mavzusi bo‘lgani holda o‘zaro hurmat, ishonch asosiga qurilgan ideal oila, ideal davlat barpo etish maketi sifatida asosiy mavzu bo‘lmoqda” [6]. Zamonaviy asarlarda yosh ilg‘or ayol obrazlari yangi davr qahramonlari sifatida sahnaga chiqdi. Bunda asosiy e’tibor yosh xotin-qizlarning qahramonlik xususiyatlariga qaratilib, gender tenglik masalasi ana shu mavzu ichida o‘z aksini topdi.

Gender tenglik masalasi zamonaviy o‘zbek teatrida ilg‘or yosh ayol qiyofasi bilan almashishi quyidagi ko‘rinishlarda ifodalandi:

1. Zamonaviy yosh ilg‘or ayol obrazi. Q.Norqobilning “Quyoshni sen uyg‘otasan”, N.Abbosxonning “Bahor shamoli”, O.Madatovaning “Jannati ayol”, Rixsivoy Muhammadjonovning “Oydin” kabi asarlarida yosh ayollarning qahramonlik jihatlari ijtimoiy - siyosiy darajada ifodalandi.

2. Milliy xususiyatlarni o‘zida jamlagan yosh o‘zbek ayoli N.Abbosxonning “O‘zbekcha raqs” va “Bog‘” (Jaydari kelin), G.Qurbonovaning “Paxlavon toshi” kabi asarlarida o‘zbek ayoliga xos bo‘lgan kurashuvchanlik, sinovlarni yengishdagi mardonavorlik, irodalilik kabi fazilatlar maishiy mavzular orqali ochib berildi.

3. Xorij asarlarida yosh ayollarning erk masalasiga bo‘lgan qarashlari va xatti-harakatlari aks etgan spektakllar. Bu mavzu Ch.Aytmatovning “Sarviqomat dilbarim”, “Jamila” kabi asarlarida lirikaga boy musiqali ko‘rinishda, kuchli xarakter chizgilari orqali aks etdi.

Keltirilgan sahna asarlari orasidan o‘zbek dramaturgiyasiga oid eng muvaffaqiyatli sahnalashtirilganlardan biri “Quyoshni sen uyg‘otasan” spektaklidir. Asar hayotning qattiq zarbalariga uchragan ayolning maqsad sari jiddiy intilib, katta tadbirkor bo‘lgani, shuningdek, oilasini ham saqlab qola olgani haqida. Asarda

xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini va bandligini ta’minlash, ayollar mehnat munosabatlarida faolligini oshirish, ayollarning huquqlarini kamsitilishiga qarshi kurash masalalari ko‘tariladi.

Yosh, sodda, o‘z sevgisi uchun shaharni, yaqinlarini tashlab qishloqqa kelgan Shabnam og‘ir ahvolda qoladi. Turmush o‘rtog‘i xorijda ishlash uchun ketib, o‘sha yerlarda qolib ketadi va Shabnam qancha harakat qilmasin, turmush o’rtog‘ i uyga, oilasi bag‘riga qaytishni istamaydi. Shabnam esa tushkunlikka tushmaydi, ziyoli, uddaburon ayol sifatida jamiyatda o‘z o‘rnini topish uchun kurashadi. Qizining baxti, hokisor qaynonasining sog‘lig‘i va tinchligi uchun harakat qiladi. Uni yolg‘iz ayol deb tahqirlashadi, qo‘lidan hech ish kelmaydigan, hech kimi yo‘q bechora sifatida ko‘ksidan itarishadi. Biroq u chekinmaydi. Maqsadi yo‘lida baribir yo‘l topadi. O‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘yib, barchaga bugunning ilg‘or ayoli ekanini isbot etadi. Natijada ijtimoiy hayotning faol a’zosi, sohasining mutaxassisi, tadbirkor bo’lib shakllanadi. U ko‘ngli toza, kechirimli ayol bo’lgani bois turmush o‘rtog‘ining qilmishlarini ham kechiradi.

Asarda ta’lim sohasidagi teng huquqlilik masalasi ham olib chiqilgan. Shabnamni nomus va sha’nini tahqirlashga harakat qilish maqsadida qizini sportda erishayotgan yutuqlaridan cheklashga harakat qilishadi. Ammo adolat qaror topadi.

Valijon Umarov tomonidan sahnalashtirilgan ushbu asar O‘zbek Milliy akademik drama teatri va Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon viloyati musiqali drama teatrida birin-ketin bir xil sahnaviy yechimda sahnaga olib chiqildi. Dekoratsiyada yuqoridan pastga qarab tushirilgan uzun iplar turli vazifalarni (bog‘, vokzal manzarasi, to‘quv dastgohi) bajargani rassomning obrazli yechimdagi yangi topilmalarini namoyon qiladi. Spektakl yaxshi kutib olindi. O‘zbek Milliy akademik drama teatrida Shabnam rolini ijro etgan Shodiya To‘xtaeva qahramonidagi irodalilik, emotsionallik, turli qarama-qarshiliklardagi holatini ishonarli ijro eta oldi.

Bobur nomidagi Andijon viloyat musiqali drama teatri tomonidan sahnalashtirilgan “Quyoshni sen uyg‘otasan” spektakli esa “Seni kuylaymiz

zamondosh” O‘zbekiston teatrlarining III Respublika ko‘rik-festivalida – “Tadbirkorlik mavzusi yoritilgan eng yaxshi spektakl” nominatsiyasiga sazovor bo‘ldi. Biroq viloyat variantida aktyorlarning til masalasida qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yayotganlari, shevada so‘zlashishga e’tibor berilmayotgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ana shunday kamchilikni Alisher Navoiy nomidagi Namangan viloyat musiqali drama teatrining “Bahor shamoli” (rej. debyutant: G‘.Soliev), Hamza nomidagi Qo‘qon shahar musiqali teatrining “Jannati ayol” (rej. debyutant: I.Abdullayev) kabi sahna asarlarida ham ko‘rish mumkin. Ammo ikki asar ham dramaturgik qonun-qoidalarga javob bergani holda, yosh rejissyorlarning ilk tajribalarini oqlab berdi va rejissuradagi kadrlar muammosi sekin-astalik bilan hal bo‘layotganini ko‘rsatdi.

Bu asarlar oila institutini mustahkamlashda yoshlarga o‘rnak bo‘lishi shubhasiz. Shuningdek, bu spektakllar ayollarning huquqlarining himoya zarurati, savodxonlik bilan bog‘liq muammolar olib chiqilganligi bilan ham ahamiyatli.

Ma’lumki, odam savdosi bugungi kunda xalqaro miqyosdagi og‘riqli muammolardan sanaladi. Ushbu masala mamlakatimizni ham chetlab o‘tgani yo‘q. Global muammoga qarshi qattiq kurashish yuzasidan olib borilayotgan keng targ‘ibotlar ishlariga qaramay, odam savdosidan aziyat chekkan o‘zbek fuqarolari, ayniqsa, yosh ayollar ko‘plab topiladi. Bu boradagi targ‘ibot va tashviqot masalalarida teatr ham o‘z javobini berdi. O‘zbek Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan “Oydin” spektakli (rejissyor: V.Umarov)da yosh xotin-qizlarning huquqlarini qo‘pol buzilishi va bunga nisbatan yosh ayol qahramonning ya’ni hattoki turmush o‘rtog‘idan kechish darajasidagi keskin protesti o‘z ifodasini topgan. Baxtli hayot kechirib kelayotgan yosh jurnalist Oydin odam savdosiga bag‘ishlangan ko‘rsatuv tayyorlash jarayonida o‘ta qattiq hayotiy zarbaga uchraydi. U juda qiyin vaziyatda qoladi. Ko‘z ochib ko‘rgani, uni baxtli qilgan inson – turmush o‘rtog‘i odam savdosi bilan shug‘ullangan jinoyatchilardan biri bo‘lib chiqadi. Ana shu kulminatsion nuqtada Oydin adolat yo‘lini tanlaydi va qahramonga aylanadi. U

turmush o‘rtog‘ini o‘zi bilan birga qancha sodda va himoyasiz qizlarning hayotini barbod qilganini kechirolmaydi. Bu jinoyatni yashirishi mumkin bo‘lgan holatda, jinoyatning jazosini ta’minlaydi.

Keltirilgan asarlarning barchasida o‘z maqsadida dadil turuvchi, irodali, o‘ziga ishongan, yosh ayol qahramonlar tomoshabin qarshisiga chiqadi.

Nurilla Abbosxonning “Jaydari kelin” (Bog‘) va “O‘zbekcha raqs” kabi asarlari orqali o‘zbek ayolining oiladagi o‘rni, uning uyning xizmatidagi kelin vazifasidan uyning bekasiga aylangunga qadar bo‘lgan mashaqqatli mehnatga to‘la hayoti komedik ruhda ochib berilgan.

“Bog‘”da “yerning yuragini sug‘urib oladigan” dehqon kelinning o‘zining qo‘pol xarakteri sabab yosh oilasining buzilishigacha borgan muammolarni qaynonasi yordamida bartaraf etgani, bog‘ bilan birga o‘z oilasini ham saqlab qolgani kulgili sahnalarda aks etadi. To‘pori, jaydari, biroz qo‘pol lekin ko‘ngli ochiq, mehnatkash Mehri o‘z mehnati, bardoshi, qaynonasining tavsiyalariga quloq tutishi bilan ziyoli erkakka mos ayol ekanligini isbot qila oladi. Asar 2004-yilda A. Navoiy nomidagi Namangan musiqali drama teatrida, Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida va 2005-yilda M.Toshmuhamedov nomidagi Qashqadaryo musiqali drama teatrida sahnalashtirildi.

Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida sahnaga qo‘yilgan spektakl va bugungi kungacha sevib tomosha qilinadigan spektakl bo’ldi. Aktrisa Munojat Alimboyeva Mehri obrazini to‘liq ochib berishga harakat qilgan. Aktrisaning boshqa viloyat teatrlarida Mehri obrazini gavdalantirgan aktrisalardan yoshroq va nozikroq ekani, qahramoni xarakterini ishonchli ochib berishda qo’l kelgan. Munojat Alimboyeva qahramonidagi qo‘pollik, befarosatlilik va hunuklikni sekin-astalik bilan noziklik va go‘zallikka aylanib borishini mahorat bilan aks ettirgan.

“O‘zbekcha raqs” (rejissyor: T.Azizov) esa milliy xususiyatlar bilan yo‘g‘rilgani ahamiyatli bo‘lib, bir rus qizining o‘zbek yigitiga, u orqali esa o‘zbek xalqiga bo‘lgan mehri uni haqiqiy o‘zbek ayoliga aylanganini dramaturg o‘ta

ta’sirchan sahnalar orqali ifodalagan. Aynan rus qizining o‘zbek kelini qiyofasida aks etishi o‘zbek kelinlari, o‘zbek ayolining boshqa millat ayollaridan farqli murakkabroq hayotini, unga qo‘yiladigan o‘ta qattiq talablar, hayotidagi mehnatga to‘la yo‘lni ochib berishda to‘g‘ri vosita sifatida tanlangan. Dramaturg Mariyaning Maryamga aylanishidagi uzoq va mashaqqatli yo‘lni turli qarama-qarshilik, hayotning achchiq sinovlari bilan to‘ldirib, asarning ta’sir kuchini kuchaytirgan.

Spektakllarning o‘ziga xosligi va tomoshabinlar mehriga sazovor bo‘lishining asosiy sababi, ularni haqiqiy o‘zbekona milliy ruh, umuminsoniy qadriyatlar, sof insoniy munosabatlar asosiga qurilganligidadir. Bunda mualliflar qaynona-kelinlarning odatiy qo‘pol konfliktlaridan holi ishonarli va hayotiy obrazlar yarata olgan. Ushbu spektakllarda gender tenglik masalasida asosiy yo‘nalishlar qilib belgilab olingan: ayollarning turmush sharoitlarini yaxshilash, oila institutini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, ayollar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish, ayollar huquqiy madaniyatini oshirish kabi muhim vazifalar o‘zining badiiy yechimini topgan.

Shuningdek, xorij adabiyoti namunalarida ham yosh ayollarning erk, ozodlik masalasi o‘zgacha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Masalan, Ch.Aytmatovning “Sarvqomat dilbarim”, “Jamila” kabi asarlari ayolning ruhiy-hissiy erkinlik, xotin-qizlarning manfaati, hayot yo‘lini tanlashdagi mustaqilligini qo‘llab-quvvatlashga bag‘ishlangan. “Sarvqomat dilbarim” qissasi Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri, Sirdaryo viloyat musiqali teatri, Turon davlat harbiy teatrida, “Jamila” spektakli O‘zbek davlat drama teatrida muvaffaqiyatli sahnalashtirildi. Sahna asarlaridagi aktyorlik ijrosi, rejissyorlik yechimi, dekoratsiya, musiqadan o‘rinli foydalanish kabi yutuqlarni aytish mumkin. Biroq asarning o‘zbek yoshlaridan iborat auditoriyasiga beradigan tarbiyasi xususida bosh qotirish lozim. Gender tenglik va milliy axloq normalari chegarasi mentalitetdan kelib chiqib belgilanar ekan, garchi sharq adabiyoti namunasi bo‘lsa-da, bu asarlar yoshlar ongida noto‘g‘ri fikr va tug‘yonlar uyg‘otishi ehtimoldan holi emas. O‘zbek tarbiyasi azaldan

oilaning mustahkamligini ta’minlashda ayolning o‘rnini anglatish, oila muqaddasligi, uni saqlab qolish, ota-onani rizoligi naqadar muhimligini kichikligidayoq bolalarga singdirishga asoslangan. Bu masala ayniqsa, bugungi kunda o‘zbek oilalarining ajrashish soni ortib borayotgan, internet orqali yot g‘oya va fikrlar, “ommaviy madaniyat” kabilar bilan qattiq kurash olib borilayotgan bir paytda juda muhim. Shu jihatdan tarbiyaning bu kabi nozik masalalarini sahnaga olib chiqishda bu prinsplarni ham inobatga olish o‘rinli.

Keltirilgan o‘zbek dramaturgiyasi asarlarida yoshlarni irodali qilib tarbiyalashda, hayotiy sinovlarda, jamiyat tasodiflarida kuchli bo‘lishga chaqirishda, kurashishda ijobiy natija beruvchi xususiyatlar mavjud. Biroq teatrning “ibratxona” sifatidagi vazifasini bajarishida ushbu asarlarning barchasini ham zalvorli, deyish mushkul.

Yangi davr o‘zbek teatrida yosh qahramon ayolni tasvirlash g‘oyasi, usuli bilan birga janr xususiyatlari ham o‘zgardi. Mustaqillikkacha bo‘lgan tragedik kayfiyat dramatik ruh bilan almashdi. Kurashuv doirasi ham jamiyat siyosiy kuchlari bilan kurashdan sodda shaxsiy konfliktlar, atrofidagilar bilan qarama-qarshi kurashlarga o‘zgardi, konflikt doirasi qisqardi. Ya’ni tipik qahramonlar individual shaxslar bilan almashdi. Shu tufayli mustaqillik davri asarlarininig g‘oyaviy-badiiy qiymati o‘tgan asrda yaratilgan asarlarga taqqoslanganda sustroq bo‘lib, ilgarigi muvaffaqiyatni tomoshabinga ta’sir kuchi doirasidan takrorlanmadi. Yaratilgan asarlar ichida teatr repertuaridan mustahkam o‘rin olgan, tomoshabin va mutaxassislar tomonidan ijobiy baholangan asarlar mavjud, albatta. Biroq, yaxshi spektakllar mukammal ijroga ega emasligi yoki professional ijro uchun badiiy yetuk asarlar tanlanmagani asarlarning to‘liq muvaffaqiyatini ta’minlay olmagan. Shuningdek, mustaqillik davrida barcha teatr ijodkorlari zamonaviy qahramon yaratishda tashqi ifoda vositalari ustida bosh qotirib, uning qay tarzda, qanday xususiyatlar orqali ochib berilishi, qahramonning shaxsiy sifatlari kabi ichki, muhim jihatlar e’tibordan chetda qoldi. Natijada, bir xil qolipdagi notugal yosh ayol

obrazlari yoki sun’iy ijroli ijobiy yosh ayol qahramonlar sahnada paydo bo‘ldi. Shuningdek, yosh ayollar masalalari teatr sohasida to‘liq qamrab olingani yo‘q. Sahnaga olib chiqish zarur bo‘lgan gender tenglik muammolari esa talaygina. Bola parvarishidagi yosh ayollarning ijtimoiy himoyasi, yosh ayollar ishsizligi, ayol mardikorchiligi, ayollar jinoyatchiligi, yosh qizlar tarbiyasi kabi ko‘plab dolzarb masalalar teatr sahnasida to‘liq ochilgani yo‘q. Tanqidiy nuqtayi nazardan tahlilda yosh ayollarning jamiyatda o‘z o‘rinini topishlari va mamlakat rivojida ishtirok etishdagi aktivligini ta’minlashda teatrning hissasini oshirish uchun muhim turtki bo‘lishi nazarda tutildi.

Ushbu muammolarni hal etishda quyidagi takliflar ustida ishlash zarur ko‘rinadi:

- Yosh ayollar masalasini sahnaga olib chiqish maqsad qilinganda, bu borada hayotiy tajribaga ega xotin-qizlar qo‘mitalari bilan hamkorlikda ishlash;
- Chet el tajribalarini o‘rgangan holda yosh ayol qahramonlarga bag‘ishlangan spektakllarni yaratish tajribasini o‘zlashtirish, ko‘p qirrali xarakterga ega yosh qahramonlarni sahnaga olib chiqish;
- Teatr tanlovlarida qahramon yosh ayol va gender tenglik masalari ko‘tarilgan “eng yaxshi asar”lar uchun nominatsiyalar e’lon qilish. Bu o‘z navbatida ushbu mavzudagi sahna asarlarining dramaturgiyasini yaxshilaydi;
- “Gender tenglik” va “Yosh ilg‘or ayol” mavzularidagi spektakllarni keng jamoatchilikka yoyish, ularni yoshlar auditoriyasi tomosha qilishi uchun tashkiliy masalalarni hal etish.

Jamoatchilikning gender masalasi borasidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarida teatr sohasi ham o‘z o‘rniga ega. Shunday ekan, bu masalada ushbu sohada izlanish va o‘zgarishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Махкамова Г. История развития сценического искусства Таджикистана в 20-е–60-е годы XX века: гендерный аспект: дис. … канд. искусств. – Душанбе, 2004. – 148 с.
2. Колесникова Н. Гендер в традиционной русской культуре: дис. … канд. искусств. – Ставрополь, 2007. – С. 5–23.
3. Андреева Н. Формирование гендерной культуры в современном обществе: философско-культурологический анализ: дис. … д-ра филос. наук. – Ставрополь, 2005. – 285 с.
4. Oliveira C. Empowerment labs: Gender equality, employability and theatre catalyzing social change // Procedia – Social and Behavioral Sciences. – 2014. – Vol. 161. – P. 56–63.
5. O‘ngboyeva B. O‘zbekistonda 1920–1956 yillarda kino va teatr san’ati tarixi: dis. … PhD (tarix fanlari). – Toshkent, 2018. – 168 b.
6. Булахова М. Влияние феминистских идей на современную музыку, театр и киноискусство белорусского андеграунда // Универсальное и национальное в культуре: сб. науч. ст. / Белорусский государственный университет. – Минск, 2012. – С. 332–342.

References

1. Makhkamova, G. *Istoriya razvitiya stsenicheskogo iskusstva Tadzhikistana v 20-e–60-e gody XX veka: gendernyy aspekt* [The Development of Stage Art in Tajikistan in the 1920s–1960s: Gender Aspect]. PhD diss., Dushanbe, 2004. (in Russian)
2. Kolesnikova, N. *Gender v traditsionnoy russkoy kul’ture* [Gender in Traditional Russian Culture]. PhD diss., Stavropol, 2007. (in Russian)
3. Andreeva, N. *Formirovanie gendernoy kul’tury v sovremennom obshchestve: filosofsko-kul’turologicheskiy analiz* [Formation of Gender Culture in Modern Society: A Philosophical and Cultural Analysis]. DSc diss., Stavropol, 2005. (in Russian)
4. Oliveira, Catarina Sales de. “Empowerment Labs: Gender Equality, Employability and Theatre Catalyzing Social Change.” *Procedia – Social and Behavioral Sciences* 161 (2014): 56–63.
5. O‘ngboyeva, B. *O‘zbekistonda 1920–1956 yillarda kino va teatr san’ati tarixi* [History of Cinema and Theatre Art in Uzbekistan in 1920–1956]. PhD diss., Tashkent, 2018. (in Uzbek)
6. Bulakhova, M. “Vliyanie feministskikh idey na sovremennuyu muzyku, teatr i kinoiskusstvo belorusskogo andegraunda” [The Influence of Feminist Ideas on Modern Music, Theatre and Cinema of the Belarusian Underground]. In *Universal’noe i natsional’noe v kul’ture*, collected papers, Belarusian State University, 332–342. Minsk, 2012. (in Russian)